

## **INGLIZ TILIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANISHI**

**Suxrob Muxammadiyev**

Osiyo Texnologiyalar Universiteti, Innovatsion fakulteti, Pedagogika va  
Xorijiy Tillar kaferdasi  
ingliz tili o'qituvchisi,

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida chet tillariga berilgan katta ahamiyat hamda ularni o'rganish uchun zarur bo'lган innovatsion texnologiyalar yoritilgan

**Kalit so'zlar:** Chet tili, o'yin, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar, usullar, metodlar

Ba'zi mutaxassislar Ingliz tilini bilish uchun grammatikani juda yaxshi bilish zarur desa, yana birovlari esa so'z boyligi ko'p bo'lishi kerak deyishadi.

Bu fikrlarni ikkalasiyam to'g'ri. Lekin, Ingliz tilini bilmaydigan biror kimsa, Ingliz tilida gaplashuvchi davlatga borib qolsa, nima bo'ladi?

U odam Ingliz tili grammatikasidan hech qanday dars olmasa ham, 3-4 oy ichida yoki 5-6 oy ichida Inglizcha gaplashishni o'rganib oladi.

Buni hech kim inkor qila olmaydi. Shundan kelib chiqib, Ingliz tili bo'yicha so'z boyligining ko'p bo'lishi, grammatik qoidalarni bilishdan muhimroq degan xulosaga kelamiz

Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tilini o'rganishning har bir aspect (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirishda yuqori malakali mutaxassislamaning roli benihoya kattadir. Shu sababli xalqimizning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatları, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika hamda texnologiyalar asosida yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi va jadal sur'atlar bilan hayotga tatbiq etilmoqda. Ta'lim tizimidagi isloh chuqur va keng ko'lamlı islohotlarning mazmuni hamda amalga oshirish muddatlari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to 'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z ifodasini topgan. Jumladan, «Kadrlar tayyorlash milliy

dasturi»da ta 'kidlanganidek, «Kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta ko'rish» zarur

Ingliz tilini o'rganishda aksariyat yoshlari qiyonaladigan qismi aynan so'zlashish (Speaking) ko'nikmasi, hammaning ham yaxshi repetitor topish imkonni, mablag'i yoki vaqt yo'q, ayniqsa native speakerni. Kenja qizimda ham ingliz tilida so'zlashuv ko'nikmasini yaxshilash kerak bo'lganiga unga o'rgatish bahonasida o'rtancha qizim yo'riqnomasi sifatida boshqalarga ham foydali bo'ladigan video qilib berdi.

Zamonaviy jamiyatda insonning ishlab chiqarish faoliyati umumlashgan ishlab chiqarish (UIC H) doirasida kechmoqda. UICH bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan fizik (moddiy) hamda axboriy-mantiqiy qismlardan iborat. Ishlab chiqarishning axboriy-mantiqiy qismiga kuch bergan mamlakatlar yuqori ish unumdarligi va zamonaviy, xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarishga erishganliklari m a'lum. Axboriy-mantiqiy ishlab chiqarish (AMICH) ning resurslari asosini axborot, mehnat vositalarini esa hisoblash texnikasi, uning dasturiy ta'minoti, axborot texnologiyalarí va boshqalar tashkil qiladi. Mehnat vositalari hamda aqliy mehnatni sarf qiluvchi, tajriba va bilimga ega insonlar AMICHning ishlab chiqarish kuchlarini tashkil qiladi. AMICHning mahsuloti abstrakt obyekt (axborot, model) iste'mol predmeti sifatida namoyon bo'lmoqda. Ishlab chiqarish doirasidagi XX asrda yuz bergan o'zgarishlar A M ICHning paydo bo'lishi va uning ahamiyatining oshishi borishi bilan bog'liqdir. Binobarin, UICHning umuman unumdarligining oshishi avtomatlashtirish, shu jumladan, AMICHni avtomatlashtirish bilan bog'liq deb qaralishi zarur. Shu bois mehnat unumdarligi ko'p jihatdan informatikaga bog'liqdir. Hisoblash texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng rivojlanishi axborotni ilgari hayolga ham keltirib bo'lmaydigan hajm hamda tezkorlikda yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish, ya'ni avtomatlashtirilgan holda ishlov berish imkoniyatini yaratib berdi. Axborot texnologiyalarí tufayli insonning faoliyati, uning kundalik muloqot sohasi dunyo sivilizatsiyasi ishlab chiqqan tajriba, bilimlar va m a'naviy qadriyatlami jalb etish hisobiga chindan ham behad kengaymoqda. Bu esa o'z navbatida jamiyatning yuqori darajada axborotlashgan bolishini talab etadi.

Chet tili o'rganishga bo'lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapishtirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot

texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnoogiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tilini o'rganishning har bir aspect (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: – kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin; – chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; – ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish; – CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'mini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiyligini qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avollo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab,

gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarни mustaqil fikrlashga o'rgatishdir.

Dars jarayonida qiyinchiliklar odatda darslar o'quvchilar uchun zerikarli bo'lganligi sababli paydo bo'ladi. O'qituvchilar va talabalar darsni tashkillashtirishda odatdagidek va an'anaviy avtoritar o'qitish bilan mashq qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Markazlashtirilgan o'quv shaklini (yoki ijtimoiy shaklini) amalga oshirish o'quvchilarning qo'liga muhim vakolatlarni beradi, ularni faollashtiradi va shu sababli ham ko'plab intizomiy qiyinchiliklar yuzaga kelmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yeqtlariga aylantiradi. Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimizimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOT:**

1. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil
2. Otaboeva, M. P. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / M. P. Otaboeva.
3. Q. Xatamova, M.N.mirzayeva. "INGLIZ TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR" (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.
4. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. "CHET TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
5. O'.Hoshimov, I. Yoqubov. "INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI" (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Shara" nashriyoti, 2003